

## MAMLAKATIMIZDA TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN SIYOSAT

**Abdug'ayurova Xurshidaxon Jamolddin qizi**

*FarDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda mamlakatimizda to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, tadbirkorlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va ularning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Annotation:** this thesis talks about the measures implemented in our country in order to increase the export potential of textile enterprises, the conditions created for entrepreneurs and their importance.

**Keywords:** to'qimachilik, eksport, tikuvchilik va trikotaj sanoati, gazlama

**Keywords:** textile, export, sewing and knitting industry, gauze.

Zamonaviy dunyoda to'qimachilik sanoati eksport bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Unda eksport qilinadigan mahsulotlar ip-kalavadan tortib tayyor kiyim-trikotaj mahsulotlari kabi keng assortimentga ega. Shu sababdan mamlakatimizda qo'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 10-yanvar kuni "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi farmoni imzolandi.

Farmonga muvofiq, yurtimizda o'tkaziladigan ko'rgazma va yarmarkalarda taniqli brendlар vakillarining ishtiroki ta'minlanadi. Bu boradagi xarajatlar Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berilishi ko'zda tutilgan Mahalliy korxonalar mahsulotiga xalqaro sertifikatlarni taqdim etuvchi kamida uchta yirik xorijiy kompaniyaning vakolatxonasi tashkil etilishi esa yurtimizdagи ishlab chiqaruvchilar uchun ayni muddaodir.

Yana bir yangilik. To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari tomonidan xorijda «Savdo uyi» va do'konini tashkil etish uchun alohida qarorlarsiz yiliga 100 ming AQSH dollarigacha mablag'ni chet elga o'tkazishga ruxsat berildi. Respublikamizning 4 hududi — Andijon, Namangan, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida to'qimachilikka ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonalari tashkil etiladi.

Bundan tashqari shu yil 2-sentabr kuni Prezidentning «To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarini aylanma mablag'lar bilan ta'minlash uchun Eksportni

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga qo'shimcha 50 mln AQSh dollari ajratiladi. Mablag'lar Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan revolver kreditlash asosida 2026 yil 1 yanvarga qadar qaytarish sharti bilan yillik 4 foiz stavkada taqdim etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimizning yangi farmonlari paxta-to'qimachilik sanoatida inqilobiy o'zgarishlar yasashi kutilmoqda. Unda belgilab berilgan vazifalar ijrosi hududlarni sanoatlashtirish, aholi bandligini ta'minlab, kambag'alchilikni qisqartirish, eng muhimi, paxta tolasini chuqur qayta ishlashni to'liq o'zlashtirib, eksport salohiyatini oshirishda klasterlar asosiy drayverga aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2016 yil 21 dekabrdagi "2017– 2019 yillarda to'qimachilik va tikuv– trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora– tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ– 2687– sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv– trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini oshirish chora– tadbirlari to'g'risida"gi PF– 2– sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2023-yil 2-sentabrdagi "To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora– tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

4.Предприятия // Маркетинг. – 1996, №3. 33– 39 б.; Boltabaev M.R. "To'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatdoshligini baholash uslubini takomillashtirish". Т;,"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011, №1. 1– 2 б.